

N.Maxmasobirova
TDSHI tayanch doktoranti

INNOVATSION XAVFSIZLIK: INNOVATSION IQTISODIYOTDA XAVFSIZLIK MASALALARI

Annotatsiya. Maqolada innovatsion iqtisodiyot sharoitida xavfsizlikni ta'minlash masalasi yoritilgan bo'lib, innovatsion xavfsizlikning mohiyati, tarkibiy elementlari, ahamiyati, innovatsion xavfsizlikka tahdidlar va ularni bartaraf etish chora-tadbirlari yoritilgan.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы обеспечения безопасности в инновационной экономике, описываются понятие, компоненты и значение инновационной безопасности, угрозы инновационной безопасности и меры по их преодолению.

Annotation. The article considers the issues of ensuring security in the innovation economy, describes the concept, components and significance of innovation security, threats to innovation security and measures of overcoming them.

Kalit so'zlar: innovatsiya, innovatsion iqtisodiyot, innovatsion faoliyat, iqtisodiy xavfsizlik, innovatsion xavfsizlik, milliy innovatsion tizim.

Ключевые слова: инновация, инновационная экономика, инновационная деятельность, экономическая безопасность, инновационная безопасность, национальная инновационная система.

Keywords: innovation, innovation economy, innovative activity, economic security, innovative security, national innovation system.

Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlikning muhim komponenti bo'lib, global moliyaviy-iqtisodiy nobarqarorlik sharoitida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalasi har bir mamlakat uchun yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy xavfsizlik o'z ichiga iqtisodiy, siyosiy, harbiy, ilmiy-texnik va ijtimoiy omillarni olib, iqtisodiy xavfsizlik ta'minlangan sharoitda milliy iqtisodiyotning o'sishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik tashqi omillarning ta'siridan qat'iy nazar ta'minlanadi. Iqtisodchi L. Abalkinning ta'biri bilan aytganda iqtisodiy xavfsizlik milliy iqtisodiyotning mustaqilligi va barqarorligi, doimiy yangilanishi hamda mukammallashuvini ta'minlovchi omilar yig'indisi sanaladi¹. Iqtisodiy xavfsizlik tizim sifatida o'z ichida ko'plab omillarni oladi va zamonaviy bosqichda mamlakatlar milliy iqtisodiyotining

¹ Абалкин Л.И. Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение // Вопросы экономики. 1994. № 12. С. 5.

raqobatbardoshligini oshirish, farovonlikni ta'minlashda muhim o'rin tutuvchi innovatsiyalar ham iqtisodiy xavfsizlikning muhim bir qismi sanaladi.

Bugungi kunda innovatsiyalar va umuman samarali innovatsion faoliyat iqtisodiy o'sishning muhim faktorlaridan sanaladi. Raqobatbardosh tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan innovatsion sohalar hamda yangi texnologiyalar milliy iqtisodiyot tarmoqlarini diversifikatsiya, modernizatsiya qilish orqali uning barqarorligi va raqobatbardoshligini, shu bilan bir qatorda xavfsizligini ham ta'minlaydi. Bu o'rinda esa samarali innovatsion siyosat olib borish, milliy innovatsion tizimni shakllantirish va doimiy takomillashtirib borish, innovatsion faoliyat, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Har qanday innovatsion strategiyaning bosh maqsadi milliy iqtisodiyotni texnik va texnologik mustaqilligini ta'minlash bo'lib, innovatsion faoliyat xavfsizligi milliy xavfsizlikning asosi sifatida, iqtisodiy farovonlik, muvozanatni ta'minlash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, xomashyoga asoslangan iqtisodiyotdan chekinish, global bozorlarga roqobatbardosh tovar va xizmatlarni taklif qilishda asos rolini bajaradi².

Hozirga qadar mamlakatlar yoki mintaqalarning innovatsion xavfsizligi masalalari bo'yicha turli xil tadqiqotlar olib borilgan bo'lsada, innovatsion xavfsizlik tushunchasining yagona ta'rifi mavjud emasdir. Ba'zi tadqiqotlarda innovatsion xavfsizlik ilmiy-texnikaviy xavfsizlikka tenglashtiriladi. Ammo, bu holatda innovatsion xavfsizlikning mohiyati torayib, innovatsion faoliyatning muhim elementlari, ya'ni tovar va xizmatlar yaratish jarayoni chetda qolib ketadi³. Boshqa tadqiqotlarda esa innovatsion xavfsizlik mohiyatiga keng nazar tashlanib, innovatsion xavfsizlik deganda mamlakatning sanoat, ilmiy-texnika va innovatsion sohalardagi xavfsizligi tushuniladi⁴. Ba'zi iqtisodchilar fikricha, innovatsion xavfsizlik milliy xavfsizlikning alohida mustaqil komponenti sifatida ilmiy-texnik, texnologik, ishlab chiqarish va iqtisodiy xavfsizlik bilan o'zaro bog'liq bo'lsa⁵, bir qator boshqa tadqiqotchilar innovatsion jarayonlar xavfsizligini ta'minlashda iqtisodiy xavfsizlikning bir qismi sanaluvchi investitsion xavfsizlik masalasini ham alohida ta'kidlaydilar⁶.

Shuningdek, bugungi kunda innovatsion xavfsizlik milliy xavfsizlikning mustaqil elementimi yoki uni iqtisodiy xavfsizlik doirasida ko'rish kerakmi degan munozaralar davom etib kelmoqda. Odatda, inovatsion faoliyatning o'rni iqtisodiy

² П.В. Самойлов, И.М. Семенова, И.Г. Матьевич. Влияние инновационной деятельности на экономическую безопасность страны // Инвестиции и инновации. Вестник Самарского государственного экономического университета. 2014. №4 (11). – С. 119-122.

³ Научно-технологическая безопасность регионов России. Методические подходы и результаты диагностирования / Татаркин А. И., Львов Д. С., Куклин А. А. и др. — Екатеринбург, 2000. — С. 11

⁴ Экономическая и национальная безопасность / Под ред. Е. А. Олейникова. — М.: Экзамен, 2004. — С. 397

⁵ А. Ф. Суховей. Проблемы обеспечения инновационной безопасности в Российской Федерации //Экономика региона № 4 (2014). – С. 141- 152

⁶ Сизов Ю.И. Экономическая безопасность региона: регионализация, устойчивость бизнеса, стратегия /Ю. И. Сизов. М.: Наука, 2004. 310 с.


xavfsizlik tizimi doirasida ko’rilsa⁷, ba’zi iqtisodchilar innovatsion xavfsizlikni alohida element sifatida tadqiq etadilar hamda innovatsion xavfsizlik deganda “iqtisodiyotning shunday himoyalanganlik holatiki, unda ITTKI natijalari va ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar milliy va jahon bozorida raqobatbardosh bo’ladi, milliy iqtisodiyotning barqaror o’sishi ta’milanadi va global bozorlardagi salbiy omillarga qarshi tura olish imkoniyati oshiriladi” deb ta’kidlaydilar⁸. Shunday qilib aytish mumkinki, innovatsion xavfsizlik deganda mamlakatning barqaror, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan dinamik rivojlanishi, iqtisodiy o’sishi hamda texnologik jihatdan mustaqilligini ta’minlovchi milliy innovatsion tizim va uni doimiy takomillashtirib borish tushuniladi.

Innovatsion xavfsizlikning mohiyatini anglashda innovatsiyalar hamda innovatsion faoliyatning mohiyatidan kelib chiqish lozimdir. Har qanday jamiyat taraqqiyoti va rivojiga ulkan ta`sir qiluvchi omillardan biri bu innovatsiyalardir. Innovatsiyalar inson kapitalining ijodkorligiga bog`liq bo`lib, ham iqtisodiy ham ijtimoiy foyda olib keladi va bugungi kunda innovatsion rivojlanish qayta ishslash jarayonining asosiy komponentiga aylanib, barqaror iqtisodiy o’sishni ta`minlashda, raqobat sharoitida ustunliklarga ega bo`lishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilg’or innovatsiyalar hamda samarali innovatsion faoliyatning rivoji natijasida innovatsion iqtisodiyot vujudga kelib, innovatsiyalarga asoslanuvchi iqtisodiyot deganda jamiyat uchun foydali bo`lgan har qanday innovatsiyadan foydalana oladigan iqtisodiy tizim tushuniladi. Innovatsion iqtisodiyot jamiyat, biznes, fan va texnologiya hamkorligi tizimi sanalib, innovatsion tizim asosida shakllanadi. Innovatsion tizimning o’zi esa ilmiy bilimlarni raqobatbardosh tovar va xizmatlarga aylantiruvchi, va ijtimoiy-iqtisodiy o’sishni ta’minlovchi ijtimoiy institutlar va tashkilotlardan iborat sanaladi⁹. Quyidagi 1-rasmida innovatsion omilning iqtisodiy xavfsizlikdagi o’rni ko’rsatilgan bo`lib, undan ko’rishimiz mumkinki, innovatsion faoliyat raqobatbardoshlik, iqtisodiy o’sish, barqarorlik hamda iqtisodiy mustaqillik bilan bo’g’liq sanaladi. Innovatsion xavfsizlik esa iqtisodiy xavfsizlikning elementi sifatida iqtisodiy suverenitetni ta`minlashda muhim o’rin tutadi.

⁷ Скрыдлов, И. А. Инновационная составляющая экономической безопасности России / И. А. Скрыдлов. – СПб., 2012. 157 с.

⁸ Бурмистров Т.В. Проблемы инновационной безопасности российской экономики [Электронный ресурс]/ Т.В.Бурмистров //За ответственную власть. Режим доступа: http://www.igpr.ru/library/burmistrova_tv_problemy_innovacionnoj_bezopasnosti_rossijskoj_jeconomiki. Дата доступа: 30.09.2015.

⁹ Суховей А.Ф., Голова И.М. Инновационные возможности саморазвития региона. — Екатеринбург: Институт экономики УрО РАН, 2010. — С. 85.



1-rasm. Iqtisodiy xavfsizlik tizimida innovatsion omilning o'rni¹⁰

Innovatsion xavfsizlik tushunchasi bir qancha kategoriyalar bilan tasniflanib, ularga “innovatsionlik”, “innovatsion iqtisodiyot”, “innovatsion jarayon”, “barqarorlik”, “raqobatbardoshlik”, “iqtisodiy mustaqillik”, samaradorlik”, “globalizat-siya” kabilarni kiritish mumkindir. Innovatsion xavfsizlik ierarxik jihatdan milliy, mintaqaviy, hududiy hamda tashkilot darajasidagi turlarga bo'linadi. Innovatsion xavfsizlikning muhim komponentlariga esa quyidagilarni kiritish mumkin:

- ilmiy-texnikaviy (ilm-fanning innovatsiyalar va yangi texnologiyalarni yarata olish imkoniyati);
- ta'limiylar (ta'lim tizimining innovatsion iqtisodiyot va ilm-fan uchun kerakli kadrlar tayyorlay olish imkoniyati). Innovatsion faoliyat rivoji, ishlab chiqarishni intellektuallashtirish va axborotlashtirishda inson omili muhim o'rinni tutadi;
- moliyaviy (innovatsion rivojlanishni moliyalashtirish uchun moliya-byudjet tizimining barqarorligi);
- ishlab chiqarish (innovatsiyalar yaratish uchun kerakli ishlab chiqarish bazasining mavjudligi);
- ijtimoiy-demografik (innovatsion iqtisodiyot sharoitida ishlay oluvchi mutaxassislar mehnat bozorining rivojlanganligi, zamonaviy ta'lim olish uchun imkoniyatlar);

¹⁰ П.В. Самойлов, И.М. Семенова, И.Г. МатьевичИ.Г. Влияние инновационной деятельности на экономическую безопасность страны // Инвестиции и инновации. Вестник Самарского государственного экономического университета. 2014. №4 (11). – С. 119-122.

•tashqi iqtisodiy (raqobatbardosh, innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish, global innovatsion tizim ishtirokchisiga aylanish).

Innovatsion xavfsizlik tuzilmasiga 9 ta o’zaro bog’liq va bir-birini to’ldiruvchi quyi tizimlar kirib, ularning vazifasi har bir bosqichda innovatsion faoliyat xavfsizligini ta’minalash hisoblanadi: - ta’lim va kadrlar tayyorlash; - ilm-fan; - innovatsion infratuzilma; - moliyaviy infratuzilma; - axborot infratuzilmasi, - intellektual mulk himoyasi; - ishlab chiqarish tizimi; - konsalting tizimi; realizatsiya qilish va tijoriylashtirish¹¹.

Innovatsion xavfsizlik masalasiga turli mamlakatlarda turlichida yondoshiladi. Misol uchun, Yevropa Ittifoqining barcha dasturlari, ko’pgina Osiyo mamlakatlarida innovatsion iqtisodiyotni shakllashtirish milliy yoki iqtisodiy xavfsizlik doirasida amalga oshirilsa, AQSHda texnologik xavfsizlik, MDH mamlakatlarida esa iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy xavfsizlik doirasida ta’milanadi¹².

Innovatsion xavfsizlikni ta’minalashda unga xavf soluvchi tahdidlarni bartaraf etish lozimdir. Innovatsion xavfsizlikka tahdidlar deganda milliy innovatsiya sohasida mamlakatning milliy manfaatlarini va vazifalarini amalga oshirishda qiyinchilik tug’diruvchi shart-sharoit va omillarning yig’indisi tushuniladi. Albatta, innovation xavfsizlikka xavf soluvchi tahdidlar mamlakatning innovatsion rivojlanishi darajasidan kelib chiqadi. Innovatsion xavfsizlikka tahdidlarni iqtisodiy faoliyat turlariga ko’ra guruhlarga ajratish mumkin bo’lib, ularga ishlab chiqarishning asosiy fondlarining ma’nab eskirishi; mamlakatda amalga oshirilayotgan innovatsion siyosatning tizimli emasligi; innovatsion siyosatning mamlakat yoki alohida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi bilan bog’liq ehtiyojlardan yiroqligi; ilm-fanning bir yerda qotib qolishi; ilmiy xodilar sonining kamayib borishi; fundamental tadqiqotlarning rivojlanmaganligi; “aql oqib o’tishi”; ilm-fan va ishlab chiqarish o’rtasidagi bo’shliqning ortishi kabilarni kiritish mumkindir¹³. Shuningdek, innovatsion taraqqiyotga hamda iqtisodiy xavfsizlikni ta’minalashga to’sqinlik qiluvchi muammolarga innovatsion faoliyat, intellektual mulk huquqidan samarali foydalanish borasidagi qonunchilik bazasining zaifligi; innovatsion faoliyatni qo’llab-quvvatlash va rivojantirish uchun mablag’larning yetarli emasligi; innovatsiyalarni yaratuvchi, innovatsion jarayonlarni boshqaruvchi yuqori malakali kadrlarning yetishmasligi; milliy innovatsion ekotizimning sust rivojlanganligi va boshqalarni kiritish mumkin¹⁴.

¹¹ В. А. Сакович, Г. М. Бровка. Инновационная безопасность: основные понятия, сущность // Наука и техника. Т. 15, № 2 (2016). – С. 151

¹² O’sha manba. – С. 147

¹³ А. Ф. Суховей. ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИННОВАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В РОССИЙСКОЙ ФЕДЕРАЦИИ // ЭКОНОМИКА РЕГИОНА № 4 (2014). – С. 141- 152

¹⁴ А. Н. Николаева, А. Е. Яковлев. ИННОВАЦИОННОЕ РАЗВИТИЕ КАК ОСНОВА ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ РОССИЙСКОЙ ЭКОНОМИКИ // Вестник ЧГПУ им. И. Я. Яковleva. 2013. № 4 (80). Ч. 1. –С. 108-112.

Innovatsion xavfsizlikni ta'minlash borasidagi chora-tadbirlar tizimi ham mamlakatning innovatsion taraqqiyoti darajasiga bog'liq bo'ladi va innovatsion xavfsizlikni oshirish borasidagi umumiy chora-tadbirlarga quyidagilarni kiritish mumkindir:

- mamlakat innovatsion xavfsizligiga bo'layotgan ichki va tashqi xavflarni vaqtida bashorat qilish va aniqlash, innovatsion xavfsizlik me'zonlarini, innovatsion xavfsizlik darajasini monitoring qilish metodikasini ishlab chiqish;
- innovatsion xavfsizlikni ta'minlashning huquqiy bazasini mustahkamlash;
- iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, ilmiy-texnik potensialni oshirish uchun ilm-fanni rivojlantirish, ITTKI xarajatlarini oshirish; ilmiy xodimlarni, tadqiqotchilarni rag'batlantirish;
- jahon yuqori texnologik bozorlarida o'z pozitsiyasini mustahkamlashga intilish;
- innovatsion xavfsizlik sohasida teng huquqli, o'zaro manfaatli hamkorlikni amalga oshirish va boshqalar.

Innovatsion xavfsizlikni ta'minlashda ikki masalaga alohida e'tibor qaratish lozim sanaladi. Birinchidan, innovatsion faoliyat "ijodkorlik", "kreativlik", "yangi g'oyalar va ularni realizatsiya qilishning kristallashuvi" kabi tushunchalar bilan bo'liq bo'lib, ular milliy iqtisodiyotning global o'zgarishlarga moslashuvchanligida muhim o'rinn tutadi. Shu bilan birga, innovatsion xavfsizlikning oshishi iqtisodiy xavfsizlik singari iqtisodiy rivojlanishning statistik yondoshuvlari orqali emas, balki dinamik innovatsion-iqtisodiy yuksalish orqali aniqlanadi. Ikkinchidan, innovatsion xavfsizlik iqtisodiyotni innovatsion boshqarishning bir qismi sanaladi, va innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning dastlabki bosqichida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning pasayishi kuzatilishi mumkindir.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion xavfsizlik innovatsion iqtisodiyot sharoitidagi xavfsizlik bo'lib, u milliy xavfsizlik tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri sanaladi. Innovatsion xavfsizlik mamlakatdagi innovatsion tarmoqlarning rivojlanganlik darjasini bilan belgilanib, bugungi kunda innovatsion xavfsizlikni ta'minlash masalasi har bir mamlakat uchun zarur sanaladi. Zero, zamonaviy bosqichda, aynan innovatsion rivojlanganlik darjasini mamlakatlarning milliy raqobatbardoshligini, iqtisodiy o'sish, barqarorlikni belgilovchi muhim omilga aylangandir. Innovatsion xavfsizlik tizim sifatida o'z ichida ko'plab komponentlarni oladi va innovatsion xavfsizlikka tahdidlar yoki uni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarning barchasi mamlakatlar kesimida, milliy innovatsion tizim rivojidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абалкин Л.И. Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение // Вопросы экономики. 1994. № 12. С. 5.
2. Бурмистров Т.В. Проблемы инновационной безопасности российской экономики [Электронный ресурс]/ Т.В.Бурмистров //За ответственную власть. Режим доступа: http://www.igpr.ru/library/burmistrova_tv_problemy_innovacionnoj_bezopasnosti_rossijskoj_jekonomiki. Дата доступа: 30.09.2015.
3. Научно-технологическая безопасность регионов России. Методические подходы и результаты диагностирования / Татаркин А. И., Львов Д. С., Куклин А. А. и др. — Екатеринбург, 2000. — С. 11
4. Николаева А.Н., Яковлев А.Е. Инновационное развитие как основа экономической безопасности российской экономики // Вестник ЧГПУ им. И. Я. Яковleva. 2013. № 4 (80). Ч. 1. –С. 108-112.
5. Сакович В.А., Бровка Г.М. Инновационная безопасность: основные понятия, сущность // Наука и техника. Т. 15, № 2 (2016). – С. 144-153
6. Самойлов П.В., Семенова И.М., Матьевич И.Г. Влияние инновационной деятельности на экономическую безопасность страны // Инвестиции и инновации. Вестник Самарского государственного экономического университета. 2014. №4 (11). – С. 119-122.
7. Сизов Ю.И. Экономическая безопасность региона: регионализация, устойчивость бизнеса, стратегия /Ю. И. Сизов. М.: Наука, 2004. 310 с.
8. Скрыдлов И.А. Инновационная составляющая экономической безопасности России / И. А. Скрыдлов. – СПб., 2012. 157 с.
9. Суховей А.Ф., Голова И.М. Инновационные возможности саморазвития региона. — Екатеринбург: Институт экономики УрО РАН, 2010. — С. 85.
10. Суховей А.Ф. Проблемы обеспечения инновационной безопасности в Российской Федерации //Экономика региона № 4 (2014). – С. 141- 152
11. Экономическая и национальная безопасность / Под ред. Е. А. Олейникова. — М.: Экзамен, 2004. – С. 397